



TALABALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Akbarova Sayyora Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-1242-2580

s.akbarova2704@gmail.com

Annotasiya. maqolada talabalarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy kompetensiya va uning komponentlari, iqtisodiy kompetentlik va uning bir-biriga aloqador tarkibiy qismlari haqida tushunchalar berilgan va ularning mazmun-mohiyati hamda xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati va ahamiyati tahlil qilinib, iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kreativlik, iqtisodiy kompetensiya, iqtisodiy kompetentlik, kasbiy faoliyat, kreativ faoliyat, farsayt faoliyat, iqtisodiy faoliyat.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Акбарова Сайёра Шухратовна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье представлены понятия экономической компетенции и её компонентов, которые необходимо развивать у студентов, раскрыты экономическая компетентность и структурные элементы, описаны их содержание и особенности. Дополнительно выполнен анализ необходимости и значимость формирования экономических компетенций у студентов, а также предложены рекомендации по развитию их экономической компетентности.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, креативность, экономическая компетентность, экономическая компетентность, профессиональная деятельность, творческая деятельность, форсайтская деятельность, экономическая деятельность.

IMPORTANCE OF DEVELOPING ECONOMIC COMPETENCIES IN STUDENTS

Akbarova Sayyora Shukhratovna

Tashkent State University of Economics

Annotation. The article examines the concepts of economic competence and its key components essential for the successful professional development of students. It highlights the features of economic competence and its structural elements, including knowledge, skills, and attitudes, and describes their content. An analysis is conducted on the relevance of developing economic competencies in the context of modern socio-economic realities. Finally, practical recommendations are proposed for the effective development of students' economic competence, which may be useful for educators and educational institutions.

Key words: competence, competence, creativity, economic competence, economic competence, professional activity, creative activity, foresight activity, economic activity.

Kirish.

Hozirgi davrda mamlakatimizda iqtisodiy o'zgarishlar ijodkorlik, innovatsiyalar va intellektual salohiyatlarga tobora ko'proq asoslanmoqda. Ushbu o'zgarishlar har bir mutaxassisdan o'z kasbiy sohasidagi muammolarni, kamchiliklarni va yutuqlarni tahlil qilish, iqtisodiy samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qilmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim talabalarga sifatli iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalar berish bilan birga ularni iqtisodiy muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olishga, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda iqtisodiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilishga o'rgatishni ham talab qiladi (Avazboyev va Pardaboyev, 2018). Ayniqsa, hozirgi ta'lim tizimi talabalarda iqtisodiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuv va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish lozimligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat "kreativ faoliyat" deb ta'riflanadi, kasbiy soha kelajagini tasavvur qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va sohani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat esa "forsayt faoliyat" deb ataladi (Akbarova, 2024). Iqtisodiy faoliyat esa, keng ma'noda, tirikchilik va farovon hayot kechirish kabi inson ehtiyojlarini qondirishning vosita va usullarini o'z ichiga oladi (Abduraimov, 2024). Iqtisodiy faoliyat insonning turli – tuman ehtiyojlarini har – hil usullar va vositalar orqali qondirishga harakat qiladi. Bo'lajak mutaxassislarni bugungi tez o'zgarayotgan iqtisodiy muhitda uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun iqtisodiy faoliyatda faol harakat qilishi uchun talabalarda nafaqat kreativ va forsayt kompetensiyalarni, balki iqtisodiy kompetensiyalarni ham shakllantrish va rivojlantirishni talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy kompetensiya va kompetentlik bilan bog'liq masalalar esa mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tganidan so'ng o'rganila boshlandi. Ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyalar tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar pedagog O.Abduraimov ishida ta'kidlab o'tilgan; kompetentlik va iqtisodiy kompetentlik tushunchalarining mazmun – mohiyati hamda professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiqotchi B.Ilhomov ishida ko'rilgan; bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishning zaruriyati va hususiyatlari tadqiqotchi B.Qurbonov ishida yoritilgan.

Shaxsning iqtisodiy kompetensiyasi xususiyatlarini o'rganish bo'yicha pedagog olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish asosida talabalarda iqtisodiy kompetensiya tushunchasining mohiyatini quyidagicha belgiladik.

Iqtisodiy kompetensiya – iqtisodiy sohalar bo'yicha o'zlashtirilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalar asosida o'z sohasining xozirgi iqtisodiy holatini va muammolarini tahlil qila olish, taqqoslash orqali aniq fikr yuritish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, alternativ yechimlar orasidan iqtisodiy jihatdan optimal yo'lni tanlab olish, amaliy faoliyatda samarali iqtisodiy natijalarga erishish, umumiy maqsadga erishish uchun atrofdagi insonlar bilan ijtimoiy – iqtisodiy mavzuda muzokaralar olib borish kabi *sifatlar yig'indisidir*. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish va savdo bilan bir qatorda hizmat ko'rsatish va servis sohasi ham keng rivojlangani uchun inson qadri va turmush farovonligini oshirish maqsadida iste'molchilarning taklif va ehtiyojlarini o'rganish, xizmatlarni iste'molchining taklifiga ko'ra optimallashtirish, hizmat ko'rsatish va servis sifatini yaxshilash bo'yicha ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi sifatlarga keng e'tibor berilmoqda (Qurbonov, 2022).

Iqtisodiy kompetentlik tushunchasi mohiyatini B.Ilhomov quyidagicha izohlab bergan "Iqtisodiy kompetentlik - jamiyat rivojlanishiga mos iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni doimiy egallab borish qobiliyati bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlarda ularning amaliyotga maqsadli tatbiqi bilan bog'liq shaxsiy rivojlanib boruvchi sifatlar yig'indisidir" (Ilhomov, 2019).

Demak, iqtisodiy kompetensiya iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalar sifatida ifodalansa, kompetentlik ushbu sifatlarga ega bo'lish darajasini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishda talabalarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil qilish usullarida foydalanildi.

Tahlili va natijalari muhokamasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – o'quv jarayoni davomida zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlarni qo'llagan holda talabalarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosida ularning iqtisodiy kompetentligini takomillashtirishdir. So'nggi yillarda talabalarda kreativ va farsayt kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilgan, chunki bu kompetensiyalar kasbiy muvaffaqiyat uchun muhim omillar sifatida qaralmoqda. Shu sababli iqtisodiy kompetensiya ham zamonaviy iqtisodiy muhitda kreativlik va farsayt kompetensiyalar bilan bir qatorda rivojlantirilishi zarur bo'lgan asosiy kompetensiya sifatida tobora ko'proq tan olinmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqot talabalarining iqtisodiy muammolarni ijodiy va analitik hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy metod va texnologiyalarni aniqlashni maqsad qiladi. Innovatsion o'qitish yondashuvlarini tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot talabalarining iqtisodiy tushunchalarni real hayotiy kontekstlarda tushunish va qo'llashni yanada samarali amalga oshirishlari uchun zamonaviy ta'limiy amaliyotlarning samaradorligini ko'rsatishni maqsad qilgan.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarga jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim berish, ularning qobiliyati hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga doir vazifalar davlat miqyosida amalga oshirilmoqda (Qurbonov, 2022). Ushbu vazifalar ta'limdagi islohotlarni, bo'lajak mutaxassislariga bozor ehtiyojlarini, ish beruvchilarning talablarini, hamda iqtisodiyotdagi texnik va texnologik modernizatsiyani hisobga olgan holda bajarilmoqda. Bu jarayon talabalarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilish orqali talabalarda iqtisodiy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Iqtisodiy kompetensiya talabalarining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu komponentlar talabalarining iqtisodiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilishi va optimal qarorlar qabul qilishi uchun zarurdir. Quyida iqtisodiy kompetensiyaning asosiy komponentlari keltirilgan (1-rasm):

Ushbu komponentlarning qisqacha mazmunini quyidagicha ta'riflash mumkin:

tahlil qilish – shaxsning obyekt va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ma'lum tavsiflar va ko'rsatgichlar bo'yicha alohida qismlarga fikran bo'lib, ularning hususiyatlari va orasidagi aloqadorlikni aniqlab, maqsad va vazifalarda ko'rsatigan talablar bo'yicha ularning ishlashini tadqiqot qilishdir;

kreativ fikrlash – shaxsning kasbiy faoliyatga innovatsion, mantiqiy va tanqidiy yondashgan holda hayotiy muammo va vazifalarga noan'anaviy, original va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli va hokazo) yechimlar topish, optimal variantini tanlash, nostandart tasavvurni ifodalashga qaratilgan fikrlash qobiliyatidir. Bu komponent orqali talaba iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion fikrlarni ilgari surishi mumkin;

tanqidiy fikrlash – shaxsning hodisa va ma'lumotlarni tahlil qilish, hodisalarni sharhlash, baholash va keyin obyektiv xulosalar chiqarish uchun ishlatiladigan mulohazalar tizimidir. Tanqidiy fikrlash muammolarni hal qilish uchun ishlatilmaydi, undan fikrlash jarayonini yanada yaxshilash uchun foydalaniladi. Tanqidiy fikrlash orqali talaba iqtisodiy vaziyatlarni chuqur tahlil qilib, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, iqtisodiy masalalarni yanada samarali hal qilishga yordam beradi;

taqqoslash - shaxsning bir fikrni boshqasi bilan taqqoslab, bir vaqtning o'zida masalaning bir necha tomonini mulohaza qila olishidir, ya'ni taqqoslash orqali aniq fikrlashidir;


qaror qabul qilish – shaxsning maqsadga erishish uchun muqobil (alternativ) yechimlar orasidan maqsadli va maqbul (optimal) yo'lini tanlab olishda bir to'xtamga yoki bir fikrga kelishidir. Bu komponent talabalarga iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishda yordam beradi;

optimallashtirish – shaxsning har qanday vazifalarni bajarishda paydo bo'lgan murakkab muammolarni to'liq tushunib olishga erishishni, ushbu muammolarni ijodiy fikrlash orqali kognitiv moslashuvchanlik bilan bir necha yechimini topishni va ular orasidan eng maqbul variantini tanlab olishidir;

hissiy intellekt — shaxsning hislarni fahmlay olish, farqlay olish, boshqalarning xohish va istaklarini tushunish hamda maqsad yo'lida o'z hislarini va boshqalarning hislarini boshqara olishidir. Hissiy intellekt biror sabab tufayli vaziyatni yanada murakkablashtirishni oldini oladi, masalaga xolis yondashib, aniq harakatlanishga yordam beradi;

kognitivlik – shaxsning hodisa va voqelikni bevosita sezishi, his etishi, bilishi, tushinishi va fikrlashidir. Talabalarda ushbu jarayonlarning rivojlanishi ularning o'quv faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun zarurdir;

tejamkorlik – shaxsning farovon turmush garovi sifatida moddiy resurslarni ortiqcha sarflashga yo'l qo'ymaslikka harakat qilib ish yuritish, tejash yo'li bilan sarflash va isrof qilmaslik yo'li bilan moddiy ta'minotni orttirishidir. Tejamkorlik iqtisodiy resurslarni oqilona va samarali ishlatishdan iborat bo'lib, talabalarda bu ko'nikmani rivojlantirish orqali ularning kelajakdagi iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishi ta'minlanadi;



1-rasm. Iqtisodiy kompetensiyaning komponentlari

tashabbuskorlik – ishning oson yoki ko'ngildagidek bitishi maqsadida rahbar yoki mas'ul shaxslarning kelishuvlar qilishi, o'zaro munosabatlarda aniq va tiniq rejalarni belgilab, qat'iylik bilan ikkinchi tomonga buni tushuntirish, biror masala yuzasidan rozilik olish hamda shartnoma tuzishdir. Tashabbuskorlik talabaning iqtisodiy faoliyatda faol bo'lishi va yangi g'oyalarni amalga oshirishga intilishini ifodalaydi;

korporativ boshqarish — yuridik shaxs faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishdir;

xizmat ko'rsatish va servis – inson qadri va turmush farovonligini oshirish maqsadida iste'molchilarning taklif va ehtiyojlarini o'rganish, ular uchun qayg'urish, xizmatlarni iste'molchining taklifiga ko'ra optimallashtirish, xizmat ko'rsatish va servis sifatini yaxshilash bo'yicha ishbilarmonlik muhitini yaratishdir.

Iqtisodiy kompetensiyaning yuqoridagi komponentlari talabalarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan muhim sifatlarni belgilaydi. Bu komponentlar orqali talaba nafaqat iqtisodiy bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ham ega bo'ladi. Bu esa, uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Demak, mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy etishi uchun, oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ayniqsa iqtisodiy sohalarida tahsil oluvchi talabalarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy kompetensiya talabalarda nafaqat ularning kasbiy faoliyatida, balki shaxsiy hayotida ham zarur bo'lgan tejamkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlikni o'rgatadi. Buning uchun o'quv jarayonida kreativ texnologiyalarni qo'llash, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha yaratilgan sillabuslarda iqtisodiy kompetentlik masalalariga e'tibor berish, talabalarining mustaqil ishlashni ularda iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosida sifatli tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish nafaqat ularning kasbiy faoliyatida, balki shaxsiy hayotida ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy kompetensiyalar talabalarda tejamkorlik, tashabbuskorlik, va tadbirkorlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, bu esa kelajakdagi muvaffaqiyatli hayotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi (Johnson & Clark, 2023). Shu sababli, tadqiqot natijalari quyidagi takliflarni ilgari surmoqda:

kreativ texnologiyalarni joriy etish: Talabalarga iqtisodiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash uchun zamonaviy kreativ texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish lozim. Bu talabalarga iqtisodiy masalalarga noan'anaviy yondashish va innovatsion yechimlar topish imkonini beradi;

iqtisodiy sohaga oid seminar-trening, vebinarlar va konferensiyalar tashkil etish: Talabalarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan seminarlar, vebinarlar va treninglarni muntazam tashkil etib borish zarur (Akbarova, 2024). Bunday tadbirlar talabalarining iqtisodiy bilimlarini amaliyotga qo'llash malakasini oshirishga xizmat qiladi;

mustaqil ishlash jarayonini sifatli tashkil etish metodikasini yaratish: Talabalarda iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun talabalarining mustaqil ishlash jarayonini iqtisodiyot sohalaridagi islohotlarning (ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investisiyalardan foydalanish, mahalliy ishlab chiqarilgan maqsulotlarni eksport va monetizatsiya qilish, mehnat samaradorligini oshirish va hokazo) mohiyati va ahamiyatini tushuntirgan holda sifatli tashkil etish metodikasini yaratish maqsadga muvofiq. Bu talabalarni iqtisodiy tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga va ularni kelgusida strategik fikrlashda, resurslarni boshqarishda va qaror qabul qilishda qo'llashga tayyorlaydi.

ijodiy innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish: Talabalarning iqtisodiy muammolarni hal qilishda ijodiy va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirish uchun innovatsion metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish zarur (Muslimov va Raximov, 2019). Bu esa, talabalarga iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish bilan birgalikda kuzatish, aniqlash, taqqoslash, ekonometrik va statistik tahlillash, prognoz qilish va rejalashtirish, loyihalash va modellashtirish, uzoq muddatli harakatlar dasturi yoki rivojlantirish konsepsiyasini yaratish kabi iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali talabalar o'z kasbiy hayotida duch keladigan iqtisodiy muammolarni samarali hal qilishga tayyor bo'ladilar. Iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shib, ularni tez o'zgarayotgan iqtisodiy muhitda yanada moslashuvchan qiladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Abduraimov, O.Sh. (2024). Ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyalar muammo sifatida. *Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari.* <https://wordlyknowledge.uz/index.php/PIUY/article/view/872>.

Akbarova, S.Sh. (2022). *Globalashuv jarayonida kreativ kompetensiyalar va ularni talaba mustaqil ta'lim faoliyatiga amaliy tadbir etish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim.*

Akbarova, S.Sh. (2024). *Talabalarning mustaqil ishlash jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Pedagogik fanlar bo'yicha PhD diss. Avtoreferati, TDIU.*

Avazboyev, A.I., & Pardaboyev, J.E. (2018). *Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan).*

Ilhomov, B.I. (2019). *Iqtisodiy kompetentlik: Mazmun-mohiyati va professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy faoliyatdagi kompetentligi. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan).*

Johnson, E., & Clark, F. (2023). *Personal and Professional Growth through Economic Competence. Oxford: Future Insights.*

Musakhanova, G.M.(2022) *Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI.*

Muslimov, N.A., Raximov, Z.T. (2019). *Педагогические технологии как важный фактор повышения эффективности образования. European research. pp-265-267.*

Qurbonov, B.E. (2022). *Bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishning zarurati va mazmuni. ORIENSS.*